



HIJRAT: YANGI SINOV SARI QADAM YOXUD NAJOT YO'LI MIGRATION: A STEP TOWARDS A NEW CHALLENGE OR A PATH TO SOLVATION

O'zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi

Islomshunoslik fakulteti

Dinshunoslik yo'nalishi 3 – kurs talabasi

Xonimova Mohiniso

Ilmiy rahbar: Rahmatilla G'oyibnazarov

Kalit so'zlar: hijrat, ko'chish, tark qilish, gunohlarni tark qilish, islom diyori, kufr diyori, islom hukmlari, kufr hukmlari, kofir, Makka fathi, vatanni sevmok iymondandir, oila, vatanparvarlik ruhi,

Annotatsiya; *This article discusses the two-sided meaning of hijrah. While its original meaning is physical migration, it was historically an important event when early Muslims left Makkah to protect their faith and lives from persecution. Since the Prophet Muhammad ﷺ declared after the Conquest of Makkah that “there is no (more) hijrah,” the paper explains that physical migration is no longer a religious requirement today. Instead, the real hijrah in the modern context is a person's inner struggle – leaving sins, wrong habits, and harmful desires. The article also notes that current claims promoting physical hijrah as a religious duty are inaccurate.*

Adabiyotlar tahlili: Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning “Ochiq xat” kitobida keltirilgan hijratga bag'ishlangan qismidan foydalandim, kitobda hijratning mazmun mohiyati ochib berilgan, bundan tashqari vatanga sadoqatli bo'lish ham yoritilgan. Ushbu manba maqola mavzusida hijratning tarixiy mazmun – mohiyatini asoslab berishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi, va shu mavzuga aloqador boshqa manbalar, maqolalardan foydalandim.



Hozirda hijrat qilyapman deb yurtini, ota – onasini tashlab, o'zga begona yurtlarda sarson – sargardon bo'lib, o'zi kabi shaxslar bilan birlashib, kindik qoni to'kilgan yurtiga qarshi “bu kufr diyori” deya qurol ko'targan, hijratning asl ma'nosini noto'g'ri talqin qilayotganlar afsuski, oramizda uchrab turibdi. Ularning asl maqsadi hijrat qilish yoki islom dinini rivojlantirish emas, balki muqaddas dinimizni nomini yomonotliq qilishdir. Tinchlik, osoyishtalik hukm surayotgan davlatlarda notinchlikni keltirib chiqarib, yangi – yangi urush o'choqlarini tashkil qilishdir. Bunday soxta da'volarning puch ekanini tasdiqlash va aholini, yoshlarni ulardan asrash maqsadida ushbu tushunchaga izoh berib o'tsak.

Hijrat islom tarixidagi eng muhim voqealardan biridir. “Hijrat” so'zi lug'atda “bir joydan ikkinchi joyga ko'chish” ma'nosini bildiradi. Istilohda esa, payg'ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vasallam davrlaridagi musulmonlarning avval Habashistonga, so'ngra o'zlari bosh bo'lib Madinaga ko'chib o'tishlari hijrat demakdir. Islomning ilk yillarida musulmonlar ozchilik bo'lgan davrda ularga nisbatan mushriklar tomonidan juda kuchli ta'qib va zug'mlar qilishdi, hatto jonlariga ham tahdid qilishardi. E'tiqodlarini erkin bajarishga imkoniyat yo'q edi. Shu sababli ham hijrat qilishga majbur bo'lishgan. O'z jonini, dinini saqlash maqsadida hijrat qilishgan. Biroq hozirda zamonaviy jamiyatda xususan, O'zbekiston sharoitida hijrat tushunchasi ko'pincha noto'g'ri tushunilib, turli ekstremistik oqimlar tomonidan buzib ko'rsatilmoqda. Oxirgi vaqtlarda ayrim yoshlarning hijrat qilishlikni da'vo qilib notinch hududlarga yo'l olishlari ayni shu tushunchaning noto'g'ri talqin qilinayotganidan darak beradi. Mazkur maqolaning maqsadi hijratning tarixiy mazmun – mohiyati va bugungi sharoitda to'g'ri yoki noto'g'ri qo'llanilishi haqida ilmiy tahlil berishdir.

Islom manbalarida hijrat – zulm ostidagi musulmonlarning e'tiqodini saqlash uchun xavfsiz joyga ko'chishi sifatida talqin qilinadi. Biz tepada hijrat so'zining lug'aviy va istilohiy ma'nolarini ko'rib chiqdik. Endi shar'iy ma'nosiga to'xtalsak. Hijratning shar'iy ma'nosi – Alloh taoloning roziligi yo'lida “kufr diyori”ni tark etib “islom diyori”ga ko'chishga aytiladi. Avval Habashistonga, so'ngra Madinaga hijrat



bunga misol bo'la oladi. Ushbu hijratda musumonlarning yashab turgan yerlaridan boshqa yurtlarga ko'chib ketishlari majburan bo'lib, bunga ularning joni, e'tiqodlari va mol – mulklariga nisbatan jismoniy shakldagi tajovuz o'ta kuchayganligi sabab bo'lgan. Demak, ta'rifdan ma'lum bo'lmoqdaki, shariatda katta savob va'da qilingan hijrat maqomiga yetishish uchun Alloh taoloning roziligi yo'lida “kufr diyori”dan “islom diyori”ga ko'chish kerak ekan. Aks holda bu shar'iy hijrat bo'lmaydi, balki oddiy bir manzildan boshqasiga yashash uchun ko'chish bo'lib qoladi. Ta'rifda keltirilgan “kufr diyori” va “islom diyori”ga izoh bersak:

“Islom diyori” – jamoat namozlari, azon, juma, hayit va boshqa islom shiorlari va hukmlari amalda bo'lib turgan yurtdir.

“Kufr diyori” – kufr hukmlari ochiq – oydin bo'lgan yerlar. Ya'ni u yerda islom hukmlari va shiorlari emas, balki kufr hukmlari ustun bo'lgan bo'ladi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, bizning yurtimiz qadimdan “islom diyori” hisoblanadi. Bunday diyordan hijrat qilinmaydi.

Bugungi kunda tinch mamlakatda yashab kelayotgan musulmonlarni xorijdagi jangarilar huzuriga go'yoki hijratga chiqishi farz amal ekanini da'vo qilayotganlar Qur'onning “Niso” surasi 97-oyatini dalil qiladi: “O'ziga zulm qiluvchi holida joni olinayotganlarga farishtalar: “Nima qilayotgan edinglar?” – derlar. Ular: “Yer yuzida bechora edik”, derlar. “Allohning yeri keng edi-ku, hijrat qilsangiz bo'lmasmidi?” – derlar. Ana o'shalarning joyi jahannamdir. U qanday ham yomon joy!”. Aslida ushbu oyat avval islom dinini qabul qilib, Makkada yashab kelgan bo'lsada, milodiy 624 yilda bo'lib o'tgan Badr jangida makkalik mushriklar safida turib, musulmonlarga qarshi jangda ishtirok etgan va o'ldirilganlar haqida nozil bo'lgan. Xushyor bo'lish lozimki, musulmon bo'lgan yurtlarda namozini o'qib, ro'zasini tutib, o'ziga farzi ayn bo'lgan boshqa hukmlarga amal qilib yurgan musulmonlarga “Hijrat qilmasang, kofir bo'lasan!” deyish qattiq adashishdir. Tarixdan ma'lumki, uzoq asrlar davomida yurtimizda islom ahkomlari ustuvor bo'lib, ajdodlarimiz unga ixlos bilan amal qilib kelganlar.



Tarixdan ma'lumki, Rasululloh sallallohu alayhi vasallam o'zlarining atroflaridagi barcha sahobalari – musulmonlar bilan birga Makka shahridan Madinaga ko'chib ketishlari farz qilingan edi. Shundan so'ng qariyb sakkiz yil davomida musulmonlar Madinada kuch-qudrat to'plaganlaridan keyingina o'zlarining ona vatanlari bo'lgan Makka shahrini fath qildilar. Makka fath qilingandan so'ng shar'iy hijrat hukmi bekor qilindi. Chunki Makkada musulmonlarning emin – erkin yashab, din arkonlariga amal qilishlari uchun hamma imkoniyatlar vujudga kelgan edi. Shuning uchun ham Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam hijrat uchun bay'at qilaman deb kelgan sahobaga:

“Makka fathidan keyin hijrat yo'q! Lekin Islom uchun bay'at qabul qilaman”, deganlar (Imom Buxoriy “Al-Jome' as-sahih”, 2913-hadis)

Hozirda hijrat farz, deb da'vo qilayotganlar mazkur hadisi sharif haqida hech narsa demaydilar. Holbuki, bu hadis hukmi bekor qilinmagan, balki uning o'zi hijrat hukmini bekor qiluvchidir. Uning iboralari va mazmuni juda aniq va sahih hadisdir.

Hijrat deganda yana gunoh va ma'siyatlarni tark qilish ham tushuniladi. Bu haqda Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisda payg'ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vasallam: “Tili va qo'lidan musulmonlar salomat bo'lgan inson haqiqiy musulmondur. Alloh taolo qaytargan narsalarni tark(hijr) qilgan inson haqiqiy muhojirdir” deganlar. Alloh taolo jannatni va'da qilgan hijrat, ya'ni bor budidan mahrum bo'lib, Payg'ambarimiz alayhissalomning yonlariga kelish Makka fathi bilan to'xtagan. Endi qolgan hijrat gunohu ma'siyat, yomonlikardan chetlanishdir. Bu haqida payg'ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vasallam: “Albatta, hijrat ikki xislatdir; gunohlardan chetlanish hamda Alloh va Rasuliga ajralib kelish...” deganlar (Imom Ahmad rivoyati 1671 – hadis). Boshqa bir hadisi sharifda Payg'ambarimiz alayhissalom: “Hijrat qiluvchi – xato va gunohlardan uzoqlashgan kishidir” deganlar (Imom Moja rivoyati, 3934 – hadis). Boshqa bir hadisda esa, “Ummu Anas raziollohu anhu Rasululloh sallollohu alayhi vasallamdan nasihat qilishni qilishni so'raydilar. Shunda, Rasululloh sallollohu alayhi vasallam: “Gunohlardan tiyilgin, o'sha hijratning eng kattasidir. Farzlarga rioya qilgin, o'sha



jihodning eng afzalidir. Zikrni ko'paytirgin, qiyomat kuni Alloh taoloning huzuriga borganingda unga eng mahbub amal shu bo'ladi" deyдилar (Tabaroniy rivoyati, 6735 – hadis). Tarixdan ma'lumki, uzoq asrlar davomida yurtimizda Islom ahkomlari ustuvor bo'lib, ajdodlarimiz unga ixlos bilan amal qilib kelganlar. Shundan so'ng yurtimizni g'ayridinlar istilo qilgan bo'lsa-da, bu davrlarda ham musulmonlarning hammasi boshqa yurtlarga ko'chib ketmaganlar. Balki, mo'min – musulmon ota – bobolarimiz vatanda qolib, qo'llaridan kelgancha dinimizga amal qilishga va kelgusi avlodga din omonatini yetkazishga harakat qilganlar. Shukurki, vatanimiz istiqloлга erishganidan keyin yana yurtimiz musulmonlari dinga oshkora amal qilish, toat – ibodatlarini jamoat bo'lib, masjidlarda ado etish, haj va umra kabi amallarni ham keng miqyosda bajarish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shu sababli yurtimiz "Islom diyori" hukmida qolgandir. Shunday ekan, yurtimizdan go'yoki hijrat qilish farz yoki vojib ekanini da'vo qilayotgan shaxslarning aytayotgan so'zlari shar'iy asosga ega emas. Balki, diniy tushunchalarni buzib talqin qilish hisoblanadi. Yuqoridagi dalillardan shuni aytish kerakki, tinch, ibodatlar emin –erkin qilinadigan mamlakatimizdan "hijrat" qilinmasligi haqidagi qat'iy xulosa kelib chiqadi. Barchamiz bundan ogoh bo'lishimiz lozim. Hijrat – ikki qirrali tushuncha. U ba'zan najot, ba'zan esa sinov bo'lishi mumkin. Asl hijrat –yomonlikdan yaxshilikka, jaholatdan ilmga, zulmdan adolatga ko'chishdir. Bugungi yurtimiz sharoitida hijratni to'g'ri tushunish, uni noto'g'ri talqin qilayotgan guruhlarга aldanmaslik, har qanday qarorni ongli va ilmiy yondashuv bilan qabul qilish nihoyatda muhimdir. Bunday no'to'g'ri talqinlarning oldini olishda jamiyatning barcha qatlamlari mas'uldir. Avvalo bu oiladan boshlanishi kerak. Oilada kelajak avlod vatanparvarlik ruhida ulg'aymog'i lozim. Zero vatanga muhabbatli bo'lmoq, vatanga mansub bo'lmoq, asramoq islomga teskari ish emas, balki vatanni sevmok iymondandir. Vatanni sevmok har bir inson uchun tabiiy narsadir, va e'tirof qilinadiki, musulmon inson uchun vatanni sevmok sunnatdir. Bu borada Rasululloh sallollohu alayhi vasallam Makkaga xitob qilib: "Sen qanday pok vatansan! Men seni sevaman. Agar qavmim meni sendan chiqarmaganida, sendan boshqa yerni makon tutmasdim" deganlar.